



**ZEBO MIRZO SHE'RIYATIDA POETIK OHANGDORLIKNING
RANG-BARANGLIGI .**

Ergasheva Marjona Qobilovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti, tillar fakulteti,
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7710584>

Annotatsiya: Tomchida olam aks etganidek yuksak she'riyatning qudratini ko'rish, inson qalbi mudom she'rga talpinishining sabablarini mushohada qilish mumkin. Faqat bugina emas, she'r dunyo dag'alligidan ozurda yurakka tiriklik nafasini ufuradi, ko'ngilni yumshatadi, mehrga, ezgulikka moyil qiladi, o'z botiniga nigoh tashlashga undaydi, bir so'z bilan aytganda qalbni tarbiyalaydi, ruhiyatni poklaydi. Ushbu maqolada taniqli shoiramiz Zebo Mirzoning go'zal she'rlarini tahlil qildik.

Kalit so'zlar: ijodkor olami, badiiy olam, lirik kechinma, qahramon tabiati, ilhom, iste'dod.

Taniqli, el suygan shoiramiz Zebo Mirzo 1964 yilning 15 dekabrda Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani Beshterak qishlog'ida tug'ildi. Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil oldi (1982–1987). Toshkent Davlat san'at instituti katta laboranti, o'qituvchisi (1987–1991), O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika markazi muharriri (1991–1995), "Yozuvchi" nashriyoti bo'lim mudiri (1995–1999), O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Yoshlar" radiokanali katta muharriri (1999–2006) vazifalarida xizmat qildi. 2006 yildan "O'zbekiston" telekanali katta muharriri sifatida faoliyat yuritadi. Zebo Mirzoning "Tun malikasi" nomli ilk she'riy to'plami 1990 yilda nashr etildi. Shundan keyin shoiraning "Ajr" (1997), "Nur kukunlari" (2004), "Ishq" (2012) kabi she'riy kitoblari dunyoga keldi. Zebo Mirzo, shuningdek, "Rangin dunyo", "Ijod maktabi", "Ijodxonalar sirlari", "Qo'shiqlarda qolgan umr", "Siz va Siz uchun" kabi tasviriy san'at, madaniyat, adabiyot namoyondalari hayoti va ijodi haqidagi madaniy-ma'rifiy mavzudagi bir qator turkum ko'rsatuvlar muallifi hamdir.

Ayol muhabbatining o'ziga xosligi shundaki, u naqadar kuchli, naqadar o'tli bo'lmasin, otashin tuyg'ular haqida ochiq aytilmaydi. Ayol qalbi qanchalar nozik bo'lmasin, olovli hislarni berkitishga qodir. Ayol hech kimga aytmagan so'zlarini, ko'ngil sirlarini she'r deb atalmish mo'jiza qatiga singdiribgina yengil tortadi. Shoiraning "Sahrolar bag'rida adashgan..." she'ri ham ayol muhabbatining samimiy iqrorida.





Uning yana bir she'riga e'tibor beraylik. Oshiq uchun ma'shuq eng yuksak xilqatdir. Oshiq o'zi ko'ngil qo'ygan insonini xayolan muhabbatining yuksak cho'qqisiga olib chiqib qo'yib, o'zi asta uning poyiga yiqilib, izlarini ko'zlariga surtadi. Chinakam oshiq ma'shuqning visoliga yetishni o'ylamaydi, negaki u o'zini bu baxtga munosib emas deb biladi. U uchun shunday buyuk zotning - Yorning bu dunyoda borligining o'zi buyuk baxt. Ushbu she'r ham ana shunday chinakam oshiqning ko'ngil oynasidir.

Nigohingni o'pib uyg'onar olam,

Ismingdan gurkirab yashaydi dunyo.

Sen mening samoga cho'zgan qo'limsan,

Umidim tongdagi porlagan ziyo...

Sening ko'ngling - osmon,

Sening ruhing - Nur.

Orzum - yulduzlaring qo'yarsan yoqib,

Men esa yuksalib boraman mag'rur,

Osmonlarday o'tgan umringga boqib...

“Sizga...” nomli she'rida muhabbat, sevgi haqida so'z borgan. Muhabbat qanchalar totli azob! Muhabbat qanchalar dardli saodat! Sevmoq og'riq, sog'inmoq g'am, hislarni dilda pinhon tutmoq azob, ishqdan bebahra dillar malomatiga sabr qilmoq mashaqqat, sevgan insonini yo'qotib qo'yishdan qo'rqib yashash dard, ayriliq azobiga bardosh bermoq, kelishiga umid juda oz bo'lgan insonning yo'llariga butun umr ko'z tikib o'tmoq, u bilan xayolan gaplashmoq nima ekanligini faqat bu hisni tuygan kishilargina anglay oladi... Mazkur she'rda ham yori bilan xayolan suhbat qurayotgan ayolning dilidagi dardli savollar aks etgan(2).

Shubhasiz, barcha maxluqotlar ichida inson eng aziz va mukarram zotdir. Ammo bu mukarramlilikning yuki ham o'ziga munosib ravishda katta, sinovlari ham boshqalarnikidan og'irroq. Shu bois ba'zida inson hayotida shunday hollar ham bo'ladiki, u boshqa mavjudotlarga havas qiladi. Agar bu yorug' dunyoda inson bo'lib emas, oddiy bir maysa yoxud shamol bo'lib yaralganimda, balki qismatim o'zgacharoq bo'larmidi degan o'ylarga boradi. Mazkur she'r ana shu oniy hissiyotning satrlarga muhrlangan tasviridir.

Haqiqiy she'r shoirning qalbidan to'kilgan satrlar, ushbu satrlar orqali ijodkorning o'z - “men”i namoyon bo'ladi. She'r bu - tazarru, ko'z yoshi, munojot va hatto isyon ham bo'lishi mumkin, ko'nglidan yengilgan inson uchun. Demak she'rda dard bor, shodlik bor, alam bor, sevinch bor. Jamiki insonning qalb tuyg'ulari mujassam. Shoira Zebo Mirzo bu haqda - “Biroq bu hol shu lahzada,





shu soniyada Iloh va Inson qalbi o'rtasidagi hol, sir. Uni o'zgarlar o'qishi shart emas!"(1), degan fikrlarini aytib o'tadi. Darhaqiqat, shoira fikrlari nihoyatda asosli. Chunki ijod etmoqlik, qalb dardlarini qog'ozga tushirmoqlik mo'jiza – ilohiy mo'jizadir. Bu – qalbning ehtiyojidir. Ammo so'z ham obrazli bo'lib, faqat tashbehli, majozisimvolik she'riyatning maydonidagina erkinlik bordir, chunki uni fikr posbonlari to'la anglamas, anglagan taqdirda ham majozlar va shakllar shoirni himoya qiladi. Ishoralar, kinoyalar, tashbehtar san'at darajasiga ko'tariladi:

Sen yuz burgan xazin kechada
Yuzinchi bor barg to'kdi chinor.
Bardoshlarim singan ko'chada,
Sevgim, axir senga nima bor?

Osmon, osmon, bechora osmon,
Tunda yig'lab to'kdi dardlarin.

Unutildi o'tgan ishqsimon

Daraxtlarning yupun barglari...

Ushbu satrlarda lirik qahramon o'zining mahzun tuyg'ularini obrazli fikrlar orqali ifodalashi she'rning emotsionalligini oshirishga xizmat qilgan. Jumladan, - "bardoshlarim singan kuchada", "unutildi o'tgan ishqsimon"(1) kabi o'xshatishlar she'rning ta'sirdorligini yanada oshirishga xizmat qilgan. Oddiy qilib aytganda bu satrlarda inson haqiqatdan ham ta'sirlanadi. Kitobxonda she'rxonlik qobiliyatini tarbiyalash asnosida bu sekinlik bilan qalb ehtiyojiga aylanadi. Darhaqiqat, she'riy asar bir kishining – shoirning olamini o'ziga xos ko'rish natijasida yuzaga kelgan hosiladir. Hamma gap shu o'ziga xos qarash va ko'rishni anglab, his qilib yetishga bog'liq.

XULOSA. Zebo Mirzo she'rlarining aksariyatida kuchli obraz, porloq fikr ko'pincha so'nggi badda beriladi. Lirik qahramon o'z qismatining g'amboda ekanligidan nolib kelar ekan, tuyg'ular junbushi borgan sari pog'onama-pog'ona yuksalib boraveradi. Shoira Zebo Mirzo faqat o'z shaxsiy hayoti qobig'ida qolishi mumkin bo'lmagan darajadagi ijodkordir. Shoira tasvirlagan qalb kechinmalari tashqi olamda ro'y berayotgan voqelikka munosabat sifatida namoyon bo'lganligini kuzatish mumkin. Lirik kechinma, qalb torlari va uning nozik jihatlarini bir butun holda tasvirlash ijodkor mahoratining yetakchi xususiyatidir. Ushbu xususiyatlar shoira badiiy olamining asosini tashkil etadi.

References:

1. Зебо Мирзо. Нур кукунлари. – Т.: 2004.
2. Норматов У. Ижод сеҳри. Т., –Шарқ|| нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2007.





3. То'хliyev В. Adabiyot o'qtish metodikasi. –Т.: Bayoz, 2010.
4. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Т., –Янги аср авлоди||, 2006.
5. Ботирова Ш.И. (2020). Инсон ва ҳаёт воқелигини метафорик уйғунлаштиришда бадий психологизмнинг ўрни. Сўз санъати, 2(3), 19-23

